XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-20-135-7-101-K/25 Pastdarg‘om tumani

Pastdarg‘om tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining yigirmanchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 2 204 000,0 (ikki milliard ikki yuz to‘rt million) ming.so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-014-7-101-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy budjeti hisobidan Pastdarg‘om tuman mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 2 204 000,0 (ikki milliard ikki yuz to‘rt million) ming.so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov)ga Pastdarg‘om tuman mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Ochilov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **RAXMANOV SHERZOD SHUXRATOVICH**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-20-135-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-014-7-101-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming.so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiriti-ladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	45 690 000	2 204 000	47 894 000

b) Xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-014-7-101-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming.so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiriti-ladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	4 354 000	2 204 000	6 558 000